



UDK: 575.141:7.712.4

Ulug'bek OCHILOV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ochilov.abduhamidovich@gmail.com
Xislat HAYDAROV,
Samarqand davlat universiteti professori
Muattar SAIDAZIMOVA,
Samarqand davlat universiteti magistranti

Жиззах давлат педагогика институтини профессори, б.ф.д Х.Мавлонов тақризи асосида

PROMISING ORNAMENTAL TREES ON THE TERRITORY OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX

Annotation

The article provides information about the name of rare trees in the city of Samarkand, Their origin, as well as the time and place of planting. These trees, like the unique historical monuments of our city, are masterpieces of nature that attract foreign tourists.

Key words: Century, rare trees, landscape design, maple, cypress, oak, native, landscape design.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ДЕКОРАТИВНЫЕ ДЕРЕВЬЯ НА ТЕРРИТОРИИ КОМПЛЕКСА ИМАМ АЛЬ БУХАРИ

Аннотация

В статье приведены сведения о научных названиях редких деревьев города Самарканда, происхождении, а также времени и месте посадки. Эти деревья, как уникальные исторические памятники нашего города, являются шедеврами природы, привлекающими иностранных туристов.

Ключевые слова: Век, редкие деревья, ландшафтный дизайн, клен, кипарис, дуб, родина, ландшафтный дизайн.

IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI HUDUDIDA EKILGAN ISTIQBOLLI MANZARALI DARAXTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy majmuasi hududida introduksiya qilingan daraxt va butalarning ilmiy nomi, oilasi vatani va manzaralilik xususiyati haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan va taksanomik tahlil qilingan. Bu daraxtlar Imom al-Buxoriy majmuasi hududining beqiyos tarixiy yodgorliklari kabi chet ellik sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi tabiat durdonalaridir.

Kalit so'zlar: Introduksiya, nodir daraxtlar, obodonlashtirilish, manzaralilik xususiyati, vatani, ko'kalamzorlashtirilishi.

Kirish. Imom al-Buxoriy majmuasi atrofidagi manzarali daraxt va butalarni ro'yxatini tuzish, ularning ekologik va biologik xususiyatlarini aniqlash hamda muhim istiqbolli vakillarini ishlab chiqarishga, ko'paytirishga joriy etish, plantatsiyalarini yaratish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Musulmon olamining taniqli muhaddislaridan biri Imom al-Buxoriy 810 yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan, 870 yilda Samarqanddan 25 km uzoqda joylashgan Xartang qishlog'ida (Samarqand viloyatining hozirgi Chelak tumani) vafot etgan va o'sha yerda dafn etilgan. Biroq, bu joy asrlar davomida qarovsiz holatda qolgan edi.

Imom al-Buxoriy majmuasi Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy memoriy yodgorliklardan biri, Islom olamida juda katta hurmat bilan tilga olinadigan Imom al-Buxoriyning qabrlari joylashgan ziyoratgohdir. Majmua Samarqand viloyatining Hartang qishlog'ida joylashgan fayzli maskan hisoblanadi. Majmuaning oldingi yani o'n oltinchi asrdagi ko'rinishida bir kichik maqbara uning oldida masjid va hovliga bir necha daraxtlar ekilib qo'yilgan bo'lgan. Keyinchalik 1997- yil 28-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan chiqarilgan qonun asosida Imom al-Buxoriyning hijriy 1225 yilligini ko'tarinki kayfiyatda nishonlashni tashkil etish haqidagi qaroriga asosan majmua butunlay qayta ta'mirlandi va qo'shimcha yodgorlik majmuasi qurilgan. Imom al-Buxoriy o'z umrini ilm o'rganish uchun sarflagan buyuk va ulug' ulamolardan biridir, ularni ishlarini yanada ko'proq o'rganish va ular yotgan ziyoratgohlarni obodonlashtirish ishlari olib borildi. Imom al-Buxoriyning eski ziyoratgohi o'rinda yangi majmua 1998-yilda qurib bitkazildi.

2021-yil 11-fevral kuni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Samarqandning turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha loyihalar bilan tanishgan. Mazkur taqdimotda Imom Buxoriy majmuasi va uning atrofida amalga oshiriladigan qurilish-bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari haqida ma'lumot berilgan.

Ishlab chiqilgan bosh reja va loyiha taklifiga muvofiq, majmuaning umumiy joylashuv yer maydoni 60,4 gektarni tashkil etib, majmua to'liq qayta rekonstruksiya qilinishi belgilandi. Shu bilan birgalikda bu hududda nafaqat qurilish balki obodonlashtirish ishlari ham amalga oshirilgan bo'lib, ko'plab manzarali daraxt va buta turlari introduksiya qilingan. Samarqand dunyoga o'zining tarixiy o'tmishi-asriy betakror tarixiy obidalari bilangina emas, balki obodonlashtirilish va ko'kalamzorlashtirilish tarixi bilan ham mashhur xisoblanadi[1.2].

Tadqiqot metodologiyasi. Imom al-buxoriy majmuasi hududida tarqalgan manzarali daraxtlarni aniqlashda M.M. Nabiyeu, R.Y. Kazakbayev «Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана»[3], A. Hamidov, M. Nabiyeu, T. Odilov «O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi» dan foydalanildi[4].

Tahlil va natijalar. Imom al-Buxoriy majmuasi atrofidagi daraxtlar to'liq tahlil etilib tavsiflangan. Quyidagi jadvalda Imom al-Buxoriy majmuasi hududidagi manzarali daraxtlarning ilmiy nomi, mahalliy nomi, oilasi, vatani va manzaralilik

xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Imom al-Buxoriy majmuasi hududida introduksiya etilgan manzarali ochiq urug'li daraxtlar

№	Ilmiy nomi	O'zbekcha nomi	Oilasi	Vatani	Manzaralilik xususiyati
1	<i>Biota orientalis</i> (L.) Endl.	Sharq sauri	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	Qrim	Barglarining doim yashil bo'lishi
2	<i>Pinus pallasiana</i> Lamb.	Qrim qarag'ayi	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Qrim	Barglarining doim yashil bo'lishi
3	<i>Pinus eldarica</i> Medw.	Eldor qarag'ayi	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Ozorbayjon	Barglarining doim yashil bo'lishi
4	<i>Pinus silvestris</i> L.	O'rmon qarag'ayi	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Yevri Osiyo	Barglarining doim yashil bo'lishi
5	<i>Cupressus arizonica</i> Greene.	Arizona savri	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	O'rtayer dengizi Xitoy	Barglarining doim yashil bo'lishi
6	<i>Juniperus exelsa</i> M.B.	Oddiy archa	<i>Cupressaceae</i> Savrdoshlar	Qrim, Kavaz, Eron	Barglarining doim yashil bo'lishi
7	<i>Juniperus virginiana</i> L.	Virjin archasi, qalam daraxti	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	Shimoliy Amerika	Barglarining doim yashil bo'lishi
8	<i>Juniperus zeravschanica</i> Kom.	Zarafshon archasi	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	O'rta Osiyo	Barglarining doim yashil bo'lishi
9	<i>Juniperus semiglobosa</i> Rgl.	Yarimsharsimon archa	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	O'rta Osiyo	Barglarining doim yashil bo'lishi
10	<i>Juniperus turkistanica</i> Kom.	Turkiston archasi	<i>Cupressaceae</i> Rich. Ex Bartl. Savrdoshlar	O'rta Osiyo	Barglarining doim yashil bo'lishi
11	<i>Picea pungens</i> Engelm.	Tikanli qoraqarag'ay	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Shimoliy Amerika	Barglarining doim yashil bo'lishi
12	<i>Picea schrenkiana</i> F. et M.	Tyanshan qoraqarag'ayi sariq qarag'ay	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Tog'li Tyan-Shan	Barglarining doim yashil bo'lishi
13	<i>Picea exelsa</i> L.	Oddiy qoraqarag'ay	<i>Pinaceae</i> Lindl Qaragaydoshlar	Shimoliy Amerika	Barglarining doim yashil bo'lishi

Yuqorida javalda ko'rsatilganidek 3 ta oilaga mansub 13 tur manzarali ochiq urug'li daraxtlar o'sayotgani ma'lum bo'ldi. Bu oilalardan Qarag'aydoshlar oilasiga mansub quyidagi *Pinus pallasiana*, *Pinus eldarica*, *Pinus silvestris*, *Picea pungens*, *Picea schrenkiana* va *Picea exelsa*, Savrdoshlar oilasiga mansub *J. arizonica*, *J. exelsa*, *J. virginiana*, *J. zeravschanica*, *J. semiglobosa*, Imom al-Buxoriy majmuasi hududida juda ko'p ekilgan va barq urib o'sayotgani ma'lum bo'ldi. Bular 3 ta oilaga, 6 ta turkumga mansub bo'lib, eng ko'p turkum va turlarga boy oila *Cupressaceae* oilasiga mansub bo'lib, xisoblanadi. Bu manzarali ochiq urug'li daraxtlarning ko'pchiligi boshqa mamlakatlardan keltirilgan bo'lib, ular Janubiy Sharqiy Osiyo Shimoliy Amerika, Yevropa mamlakatlaridan, Tyan-Shan, O'rta Osiyo, Qrim va boshqa o'lkalardan introduksiya etilgan.

2-jadval

Imom al-Buxoriy majmuasi hududida introduksiya etilgan manzarali yopiq urug'li daraxtlar

T/N	Ilmiy nomi	O'zbekcha nomi	Oilasining nomi	Vatani	Manzaraliligi
1	<i>Acer pseudoplatanus</i> L.	Yavor zarangi	<i>Aceraceae</i> Juss.-Zarangdoshlar	Kavaz, Janubiy Yevropa, O'rta Osiyo	Shox-shabbasi
2	<i>Aesculus hippocastanum</i> L.	Soxta kashtan	<i>Hippocastanaceae</i> Otkashtandoshlar	Gretsiya	Shox-shabbasi
3	<i>Albezia julibrissin</i> Durazz.	Shoyi akatsiya	<i>Fabaceae</i> Lindl Burchoqdoshlar	Kavkaz Eron Habashiston	Shox-shabbasi va gullari
4	<i>Betula turcestanica</i> S.F.Gray.	Turkiston qayini	<i>Betulaceae</i> S.F.Gray. Qayindoshlar	Tog'li O'rta Osiyo, Tyan-Shan	Shox-shabbasi
5	<i>Buxus sempervirens</i> L.	Doim yashil shamshod	<i>Buxaceae</i> Dumort. Shamshoddoshlar	Yevropa O'rtayer dengizi	Shox-shabbasi
6	<i>Catalpa speciosa</i> Ward.	Go'zal katalpa	<i>Bignoniaceae</i> Bignoniadoshlar	Shimoliy Amerika, Yevropa, Avg'oniston	Shox-shabbasi
7	<i>Cercis siliquastrum</i> L.	Arg'uvon	<i>Fabaceae</i> Lindl Burchoqdoshlar	Yevropa, Osiyo, Yaponiya	Gullari
8	<i>Fraxinus excelsior</i> L.	Oddiy shumtol	<i>Oleaceae</i> -Zaytundoshlar	Yevropa, Kavkaz.	Shox-shabbasi
9	<i>Koelreuteria apiculata</i> Laxm.	Sovun daraxti	<i>Sapindaceae</i> Sapinddoshlar	Xitoy	Shox-shabbasi
10	<i>Liriodendron tulipifera</i> L.	Lola daraxti	<i>Magnoliaceae</i> Juss. Magnoliyadoshlar	Xitoy Shimoliy Amerika	Shox-shabbasi gullari
11	<i>Magnolia grandiflora</i> L.	Yirik gulli magnoliya	<i>Magnoliaceae</i> Juss. Magnoliyadoshlar	Shimoliy Amerika	Shox-shabbasi gullari
12	<i>Magnolia sulangeriana</i> L.	Sulanj magnoliyasi	<i>Magnoliaceae</i> Juss. Magnoliyadoshlar	Xitoy Fransiya	Shox-shabbasi gullari
13	<i>Magnolia. Lilieflora</i> L.	Lola gulli magnoliya	<i>Magnoliaceae</i> Juss. Magnoliyadoshlar	Xitoy	Shox-shabbasigullari
14	<i>Platanus orientalis</i> L.	Sharq chinori	<i>Platanaceae</i> Dumort. Chinordoshlar	O'rta Yer Dengizi	Shox-shabbasi
15	<i>Populus pyramidalis</i> Rozier.	Mirzaterak Daraxt	<i>Salicaceae</i> Toldoshlar	Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyo	Shox-shabbasi
16	<i>Quercus robur</i> L.	Qo'ng'ir eman	<i>Fagaceae</i> Qoraqayindoshlar	Kavkaz, Yevropa, O'rta Osiyo	Shox-shabbasi
17	<i>Salix bobylicona</i> L.	Majnunol	<i>Salicaceae</i> Toldoshlar	Shimoliy Xitoy	Shox-shabbasi
18	<i>sophora japonica</i> L.	Yapon soforasi, Tuxumak	<i>Fabaceae</i> Lindl Burchoqdoshlar	Xitoy, Yaponiya	Shox-shabbasi
19	<i>Tilia Cordata</i>	Yurakbarg jo'ka	<i>Tiliaceae</i> Jo'kadoshlar	Yevropa, Avg'oniston	Shox-shabbasi gullari
20	<i>Ulmus densa</i> Litv.	Sadaqayrag'och	<i>Ulmaceae</i> Qayrag'ochdoshlar	O'rta Osiyo, Shimoliy Qirg'iz	Shox-shabbasi
21	<i>Ulmus uzbekistanica</i> Drob.	Bujun qayrag'och	<i>Ulmaceae</i> Qayrag'ochdoshlar	Endim	Shox-shabbasi
22	<i>Ulmus laevis</i> Pall.	silliqli qayrag'och	<i>Ulmaceae</i> Qayrag'ochdoshlar	G'arbiy Yevropa	Shox-shabbasi

Imom al-Buxoriy majmuasi hududidagi tadqiqotlar natijasida 22 turdan ortiq manzarali yopiq urug'li daraxtlar aniqlandi. Bular 14 ta oilaga mansub bo'lib, eng ko'p turkum va turlarga boy oilalar *Fabaceae*, *Magnoliaceae*, *Ulmaceae* va boshqa oilalarga mansub bo'lib xisoblanadi. Turlar soniga kam bo'lgan oilalardan *Oleaceae*, *Sapindaceae*, *Tiliaceae* oilalarini misol keltirishimiz mumkin. Qariyb 90 % manzarali daraxtlar shox-shabbasining chiroyli bo'lishi va ajoyib gullari e'tiborda bo'lgan holda mahalliy xalq tomonidan ko'paytirilgan. Ushbu manzarali daraxtlar Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan, Shimoliy Amerika, Yevropa mamlakatlaridan, Kavkazdan va boshqa o'lkalardan introduksiya etilgan.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda Imom al-Buxoriy majmuasi hududida ochiq urug'li manzarali daraxtlarning 13 ga yaqin turi aniqlandi. Ular 6 ta turkumga va 3 ta oilaga mansub. Ulardan Cupressaceae va Pinaceae oilasiga mansub turlar eng ko'p uchrashi ma'lum bo'ldi.

Imom al-Buxoriy majmuasi hududida introduksiya qilingan yopiq urug'li manzarali daraxtlar 22 turdan ortiq bo'lib, ular 18 turkum va 14 ta oilaga mansub manzarali daraxtlar bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Keldiyarov X.A., Sulaymonov E.S. Samarqand shahrining botanik tabiat yodgorliklari. Samarqand-2009.
2. Nematov E., Xuramov B., Muqumov I., Muqumov O'. Samarqandning yashil qalqonlari, Samarqand-2007 yil.
3. Набиев Р.Ю., Казакбаев «Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана» Ташкент.1975.С156.
4. Ҳамидов А., Набиев М., Одилов Т. «Ўзбекистон ўсимликлари аниқлагичи» Т.: Ўқитувчи 1987.14-72 б.
5. Sulaymonov E. S., Qobulov D., Muqumov X. "Shahrimizning yashil qalqonlari" Toshkent O'zbekiston Fan nashriyoti 1982-yil 3. 36 b.
6. Usmonov A.U. Dendrologiya "O'qituvchi" Toshkent -1974 y. 254 c.